


QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-iyul oylari uchun dastlabki ma'lumot)

2020-yil yanvar-iyul oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **302,9** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan **176,7** mln. AQSh dollariga yoki **36,8 %** ga kamaydi.

TASHQI SAVDO
AYLANMASI
VA BALANSI
(yanvar-iyul,
mln. AQSh
dollari)




Ma'lumot uchun: Qashqadaryo viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi **133,6** mln. AQSh dollariga (**36,5** % ga kamaydi) va import hajmi **169,3** mln. AQSh dollariga (**37,1** % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida **-35,7** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**TASHQI SAVDO
AYLANMASI**
(yanvar-iyul,
ming AQSh
dollari)

2019-yil yanvar-iyul

2020-yil yanvar-iyul



So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Qashqadaryo viloyati, jahonning **65** dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasi (**21,9** %), Rossiya Federatsiyasi (**11,3** %), Turkiya (**9,9** %), Qozog'iston (**8,8** %), Eron (**8,8** %), Germaniya (**6,4** %), Afg'oniston (**4,2** %) va Hindiston (**3,5** %) qayd etilgan.

**QASHQADARYO
VILOYATI BILAN
TASHQI SAVDO
AYLANMASI ENG
YUQORI
ULUSHGA EGA
BO`LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil yanvar-
iyul, ming AQSh
dollari, ulushi,
% da)**

Top-20 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Xitoy Xalq Respublikasi	66 426,7	9 534,2	56 892,5	21,9
Rossiya Federatsiyasi	34 222,6	19 272,4	14 950,2	11,3
Turkiya	30 049,6	16208,9	13 840,7	9,9
Qozog`iston	26 628,3	20 733,8	5 894,5	8,8
Eron	26 506,8	26 243,9	262,9	8,8
Germaniya	19 487,6	22,6	19 465,0	6,4
Afg`oniston	12 863,9	12 798,3	65,6	4,2
Hindiston	10 587,9	373,0	10 214,9	3,5
Yaponiya	8 613,6	436,7	8 176,9	2,8
Qirg`iz Respublikasi	7 299,7	5 728,0	1 571,7	2,4
AQSH	6 754,9	8,9	6 746,0	2,2
Indoneziya	5 997,6	5 997,3	0,3	2,0
Tojikiston	5 771,8	5 622,5	149,3	1,9
Belarussiya	5 519,2	164,1	5355,1	1,8
Pokiston	4 347,0	4 318,7	28,3	1,4
Fransiya	3 594,7	0,1	3 594,6	1,2
Avstraliya	3 276,1	-	3 276,1	1,1
Italiya	2 712,6	-	2 712,6	0,9
Koreya Respublikasi	2 379,6	22,8	2 356,8	0,8
Ukraina	2 156,3	1 530,7	625,6	0,7

**QASHQADARYO
VILOYATI BILAN
TASHQI SAVDO
AYLANMASI ENG
YUQORI
ULUSHGA EGA
BO`LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil yanvar-
iyul, ming AQSh
dollari, ulushi
% da)**

Shuningdek, qo`shni davlatlar bilan o`zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko`rish mumkin.

Xususan, qo`shni davlatlar Qozog`iston va Qirg`iz Respublikalari bilan TSA da so`nggi yillarda katta o`zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so`nggi uch yilda TSA Qirg`iz Respublikasi, Tojikiston va Afg`oniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo`shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan o`nta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Eron (**25 981,0** ming AQSh dollari), Qozog`iston (**14 839,3** ming AQSh dollari), Afg`oniston (**12 732,7** ming AQSh dollari), Indoneziya (**5 997,0** ming AQSh dollari), Tojikiston (**5 473,2** ming AQSH dollari), Rossiya Federatsiyasi (**4 322,2** ming AQSh dollari), Pokiston (**4 290,4** ming AQSh dollari), Qirg`iz Respublikasi (**4 156,3** ming AQSH dollari), Turkiya (**2 368,2** ming AQSh dollari), va Ukraina (**905,1** ming AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan **10** ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**QASHQADARYO
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-iyul,
ming AQSh
dollari)**

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	88 234,0	146 283,2	66 426,7
Eksport	52 221,5	36 406,1	9 534,2
Import	36 012,5	109 877,1	56 892,5
Saldo	16 209,0	-73471	-47358,3
Rossiya Federatsiyasi	39 665,4	42 497,7	34 222,6
Eksport	19 891,2	20 911,6	19 272,4
Import	19 774,2	21 586,1	14 950,2
Saldo	117,0	-674,5	4 322,2
Turkiya	33 493,4	47 535,4	30 049,6
Eksport	18 917,6	39 088,7	16 208,9
Import	14 575,8	8 446,7	13 840,7
Saldo	4 341,8	30 642,0	2 368,2
Qozog`iston	25 577,7	41 794,0	26 628,3
Eksport	15 487,8	21 580,9	20 733,8
Import	10 089,9	20 213,1	5 894,5
Saldo	5 397,9	1 367,8	14 839,3
Germaniya	7 219,1	6 988,2	19487,6
Eksport	0,1	5,7	22,6
Import	7 219,0	6 982,5	1 9465
Saldo	-7 218,9	-6 976,8	-19 442,4
Eron	11 742,0	40 783,1	26 506,8
Eksport	11 383,9	39 264,0	26 243,9
Import	358,1	1 519,1	262,9
Saldo	11 025,8	37 744,9	25 981,0
Afg'oniston	6 325,3	13 989,8	12 863,9
Eksport	6 325,3	13 966,2	12 798,3
Import	-	23,6	65,6
Saldo	6325,3	13942,6	12732,7

**QASHQADARYO
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-iyul,
ming AQSh
dollari)**



Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Hindiston	4 042,8	3 896,9	10 587,9
Eksport	57,3	38,5	373
Import	3 985,5	3 858,4	10 214,9
Saldo	-3 928,2	-3 819,9	-9 841,9
Yaponiya	7 662,8	5 630,6	8 613,6
Eksport	0	2,3	436,7
Import	7 662,8	5 628,3	8 176,9
Saldo	-7 662,8	-5 626,0	-7 740,2
Qirg'iz Respublikasi	2 231,8	3 679,5	7 299,7
Eksport	1 110,8	3 628,8	5 728,0
Import	1 121,0	50,7	1 571,7
Saldo	-10,2	3 578,1	4 156,3
Indoneziya	16 650,4	8 824,9	5 997,6
Eksport	16 650,4	8 824,9	5 997,3
Import	-	-	0,3
Saldo	16 650,4	8 824,9	5 997,0
AQSH	4 709,1	4 745,7	6 754,9
Eksport	23,4	12,6	8,9
Import	4 685,7	4 733,1	6 746,0
Saldo	-4 662,3	-4 720,5	-6 737,1
Belarus Respublikasi	1 183,5	2 685,9	5 519,2
Eksport	249	277,3	164,1
Import	934,5	2 408,6	5 355,1
Saldo	-685,5	-2 131,3	-5 191,0
Tojikiston	12 635,9	14 567,1	5 771,8
Eksport	12 275,0	13 950,2	5 622,5
Import	360,9	616,9	149,3
Saldo	11 914,1	13 333,3	5 473,2

**QASHQADARYO
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-iyul,
ming AQSh
dollari)**

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Pokiston	2 677,9	2 357,7	4 347,0
Eksport	2 660,4	1 917,1	4 318,7
Import	17,5	440,6	28,3
Saldo	2 642,9	1 476,5	4 290,4
Fransiya	1 180,7	3 647,6	3 594,7
Eksport	0,3	-	0,1
Import	1 180,4	3 647,6	3 594,6
Saldo	-1 180,1	-3 647,6	-3 594,5
Avstraliya	-	-	3276,1
Eksport	-	-	-
Import	-	-	3 276,1
Saldo	-	-	-3 276,1
Italiya	6617,5	2196,6	2 712,6
Eksport	-	-	-
Import	6 617,5	2 196,6	2 712,6
Saldo	-6 617,5	-2 196,6	-2 712,6
Janubiy Koreya	64 357,1	15 338,0	2 379,6
Eksport	1,9	56,5	22,8
Import	64 355,2	15 281,5	2 356,8
Saldo	-64 353,3	-15 225,0	-2 334,0
Ukraina	5 576,3	10 570,0	2 156,3
Eksport	335,5	3 242,2	1 530,7
Import	5 240,8	7 327,8	625,6
Saldo	-4 905,3	-4 085,6	905,1
Litva	518,3	25 849,5	1 922,9
Eksport	211,7	300,3	96,6
Import	306,6	25 549,2	1 826,3
Saldo	-94,9	-25 248,9	-1 729,7

Viloyatimizda tashqi savdoni qoʻllab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash boʻyicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020-yil yanvar-iyul oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **27,8** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi oʻtgan yilga nisbatan ulushi **0,1** % ga kamaygan.

QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020-yil yanvar-iyul oylarida kamaydi (2019-yil shu davriga nisbatan **38,4** % ga kamaydi) va jami TSA dagi ulushi **72,2** % ni tashkil etdi.

QASHQADARYO VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-iyul)

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning eksportyorlar soni **49** tani tashkil etib, ular tomonidan **133,6** mln. AQSh dollari (2019-yilning mos davriga nisbatan **36,5** % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishini ta`minladi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **98,3** % ni tashkil etib, ular asosan Oziq-ovqat va tirik hayvonlar (**20,5** %), Sanoat mahsulotlari (**29,6** %), Yoqilg'i bundan mustasno, nooziq-ovqat xom ashyolari (**20,7** %), Kimyoviy va shunga o'xshash mahsulotlar (**16,0** %), Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar (**8,3** %), Har xil tayyor mahsulotlar (**1,8** %), Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar (**1,2** %) va Ichimliklar va tamaki (**0,2** %) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**EKSPORT TARKIBI
(2020-yil
yanvar-iyul)**



**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARGA
EKSPORT TARKIBI
(2020-yil
yanvar-iyul)**

Tarkibi	Ming AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	133 546,8	53 949,4	79 597,4	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	27 314,2	21 466,0	5 848,2	20,5	39,8	7,3
Ichimliklar va tamaki	242,7	238,1	4,6	0,2	0,4	0,0
Yoqilg'i bundan mustasno, nooziq-ovqat xom ashyolari	27 611,0	471,6	27 139,4	20,7	0,9	34,1
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	11 022,5	3 302,0	7 720,5	8,3	6,1	9,7
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	1 602,8	-	1 602,8	1,2	-	2,0
Kimyoviy va shunga o'xshash mahsulotlar	21 370,7	13 840,4	7 530,3	16,0	25,7	9,5
Sanoat mahsulotlari	39 465,0	10 765,5	28 699,5	29,6	20,0	36,1
Mashinalar va transport uskunolari	41,8	40,1	1,7	-	0,1	-
Har xil tayyor mahsulotlar	2 433,2	2 293,5	139,7	1,8	4,3	0,2
Xizmatlar	2 442,9	1 532,2	910,7	1,7	2,7	1,1

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi xizmatlar hissasiga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport hajmi bo`yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar hamda turli xil tayyor buyumlarga to`g`ri kelmoqda.

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTINING
O`SISH
SUR`ATLARI
(2020-yil
yanvar-iyul)**

Tarkibi	2019-yilning mos davriga nisbatan, %		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	63,5	83,3	54,7
shu jumladan:			
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	66,4	132,2	23,5
Ichimliklar va tamaki	61,6	60,5	-
Yoqilg'i bundan mustasno, nooziq-ovqat xom ashyolari	52,6	66,5	52,5
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	48,1	32,5	60,4
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	56,1	-	-
Kimyoviy va shunga o'xshash mahsulotlar	59,3	62,1	54,8
Sanoat mahsulotlari	79,4	117,0	70,8
Mashinalar va transport uskunalari	33,8	32,4	-
Har xil tayyor mahsulotlar	4,2 m.	4,2 m.	6,5 m.
Xizmatlar	61,5	68,6	52,4


2020-yil yanvar-iyul oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-iyuliga nisbatan, Har xil tayyor mahsulotlardan tashqari barcha tovar va xizmatlarda kamayish kuzatildi.

**EKSPORT
TARKIBI
DINAMIKASI
(yanvar-iyul,
% da)**

Tarkibi	ulushi, %		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	20,5	39,8	7,3
Ichimliklar va tamaki	0,2	0,4	-
Yoqilg'i bundan mustasno, nooziq-ovqat xom ashyolari	20,7	0,9	34,1
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	8,3	6,1	9,7
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	1,2	-	2,0
Kimyoviy va shunga o'xshash mahsulotlar	16,0	25,7	9,5
Sanoat mahsulotlari	29,6	20,0	36,1
Mashinalar va transport uskunolari	-	0,1	-
Har xil tayyor mahsulotlar	1,8	4,3	0,2
Xizmatlar	1,7	2,7	1,1

**MDH
VA BOSHQA
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI**
(yanvar-iyul,
ming AQSh
dollari,
ulushi, % da)

So`nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2018-yil yanvar-iyulida **30,7 %** dan 2020-yil yanvar-iyulda **40,4 %** ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **59,6 %** ni tashkil etdi.



**VILOYAT
EKSPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI,
foizda**
(2020-yil
yanvar-iyul)

2020-yilning yanvar-iyul oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo`yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Eron (eksport umumiy hajmining **19,7 %**), Qozog`iston (**15,5 %**), Rossiya Federatsiyasi (**14,4 %**), Turkiya (**12,1 %**), Afg`oniston (**9,6 %**), Xitoy Xalq Respublikasi (**7,1 %**) va Indoneziya (**4,5 %**) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **82,9** foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan etakchi bo`lgan Qozog`istonning bir pog`onaga tushishi hisobiga, Eron eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.


Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2019-yining mos davriga nisbatan **39** davlatdan **49** davlatga ko'paydi.

**QASHQADARYO
VILOYATINING
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLARGA
AMALGA
OSHIRGAN
EKSPORTI HAJMI
VA O`SISH
SUR`ATLARI
(yanvar-iyul)**

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019-yil yanvar- iyul	2020-yil yanvar- iyul	2019-yil yanvar- iyul	2020-yil yanvar- iyul	2019-yil yanvar- iyul	2020-yil yanvar- iyul
Eron	39264	26243,9	3,4 m.	66,8	1	1
Qozog`iston	21580,9	20733,8	139,3	96,1	4	2
Rossiya Federatsiyasi	20911,6	19272,4	105,1	92,2	5	3
Turkiya	39088,7	16208,9	2,1 m.	41,5	2	4
Afg`oniston	13966,2	12798,3	2,2 m.	91,6	6	5
Xitoy Xalq Respublikasi	36406,1	9534,2	69,7	26,2	3	6
Indoneziya	8824,9	5997,3	53,0	68	8	7
Qirg`iz Respublikasi	3628,8	5728	3,3 m.	157,8	9	8
Tojikiston	13950,2	5622,5	113,6	40,3	7	9
Pokiston	1917,1	4318,7	72,1	2,3 m.	11	10
Ukraina	3242,2	1530,7	9,7 m.	47,2	10	11
Singapur	445,9	1059,7	25,4	2,4 m.	20	12
Moldova	631,5	780,7	105,4	123,6	15	13
Chexiya	1032,1	564,0	4,3 m.	54,6	12	14
Yaponiya	2,3	436,7	105,6 m.	18,6 m.	36	15
Malayziya	644,5	433,0	2,4 m.	67,2	14	16
Filippin	556,3	418,6	-	75,2	17	17
Hindiston	38,5	373	67,2	9,7 m.	28	18
Polsha	764,8	313,2	2,0 m.	41,0	13	19
Belarus Respublikasi	277,3	164,1	111,3	59,2	23	20

**XIZMATLAR
EKSPORTI
TARKIBI**
(yanvar-iyul,
Ulushi, % da)

Xizmatlar eksporti hajmi **2 442,9** ming. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **1,7 %** ini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan **38,5 %** ga kamayganligi kuzatildi. So`nggi uch yilda o`shish hisobiga xizmatlarning jami eksportdagi ulushi o`sdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (**47,0 %**) va moliyaviy (**19,1 %**) xizmatlari hissasiga to`g`ri kelgan. Shu bilan birga safarlar (**7,1 %**), qurilish xizmatlari (**2,9 %**), va boshqa xizmatlar umumiy hajmda **23,9 %** ni tashkil etgan.



**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI
EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo`lgan **25,4** mln. dollarga yaqin qiymatli **44,8** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019-yilning mos davriga nisbatan **14,8** mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, **36,7 %** ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **11,3** mln. AQSh dollariga teng **24,4** ming tonna sabzavot, shuningdek, **14,2** mln. AQSh dollari qiymatidagi **20,4** ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog`iston (**43,4 %**), Rossiya Federatsiyasi (**26,3 %**), Qirg`iz Respublikasi (**10,7 %**), Afg`oniston (**9,3 %**) va Pokiston (**7,8 %**) davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

MEVA -
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARINING
EKSPORT TAHLILI
(yanvar-iyul)



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **19,0** % ni tashkil etdi.

Davlatlar	2019-yil yanvar-iyul			2020-yil yanvar-iyul		
	ming tonna	ming AQSh dollari	ulushi, % da	ming tonna	ming AQSh dollari	ulushi, % da
Jami:	25798,8	40230,2	100,0	44771,0	25448,4	100,0
Qozog'iston	10158,1	6234,7	15,5	22859,2	11043,4	43,4
Rossiya Federatsiyasi	9939,9	3740,7	9,3	14451,4	6686,6	26,3
Qirg'iz Respublikasi	131,2	2406,7	6	1459,6	2719,5	10,7

**MEVA -
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARINING
EKSPORT TAHLILI
(yanvar-iyul)**


Davlatlar	2019-yil yanvar-iyul			2020-yil yanvar-iyul		
	ming tonna	ming AQSh dollari	ulushi, % da	ming tonna	ming AQSh dollari	ulushi, % da
Afg'oniston	459,3	903,7	2,2	3729	2368,9	9,3
Pokiston	170,7	601,4	1,5	1385,5	1980,1	7,8
Xitoy Xalq Respublikasi	51,1	55,8	0,1	178	205,9	0,8
BAA	31,4	89,8	0,2	49,6	147,3	0,6
Iroq	258,5	261,5	0,7	83,4	83,3	0,2
Hindiston	195,4	93,4	0,2	147,2	57,7	0,2
Latviya	-	-	-	21	26,3	0,1
Turkiya	2078,5	21586,6	53,7	22	24,2	0,1
Belarus Respublikasi	168,9	64,5	0,2	105,1	23,8	0,1
Ukraina	1145,0	3102,3	7,7	96,9	23,6	0,1
Eron	210,0	188,0	0,5	23	23	0,1
Moldova	-	-	-	100,8	21,4	0,1
Polsha	497,4	466,0	1,2	59,3	13,4	0,1
Ozarbayjon	21,8	28,2	0,1	-	-	-
Bolgariya	67,5	314,2	0,8	-	-	-
Kipr	23,1	3,9	-	-	-	-
Gruziya	43,5	5,2	-	-	-	-
Germaniya	20	5,7	-	-	-	-
Yaponiya	0,2	0,2	-	-	-	-
Koreya Respublikasi	68,9	48,3	0,1	-	-	-
Litva	16,5	3,8	-	-	-	-
Ruminiya	19,9	11,8	-	-	-	-
Tojikiston	21	10	-	-	-	-
AQSH	1	3,8	-	-	-	-

*-qiymat ifodasidan

QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-iyul)

2020-yil yanvar-iyul oylarida import hajmi **169,3** mln. AQSH dollarini va 2019-yilning mos davriga nisbatan **62,9** % ni tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020-yil yanvar-iyulida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **100,0** mln. AQSh dollariga kamaydi.

**XSST BO`LIMI
BO`YICHA
IMPORT TARKIBI
(2020-yil
yanvar-iyul,
ulushi, % da)**



Xizmatlar importi esa **0,5** mln. AQSh dollariga yetdi.

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORT TARKIBI
(2020-yil
yanvar-iyul)**

Tarkibi	ming AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, %		
	Jami	MDH davlatlar	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlar	Boshqa davlatlar
Jami import	169 352,1	30 362,6	138 989,5	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	5478,1	2909,4	2568,7	3,2	9,6	1,8
Yoqilg'i bundan mustasno, nooziq-ovqat xom ashyolari	7327,6	5998,3	1329,3	4,3	19,8	1
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	5541,9	5151,1	390,8	3,3	17,0	0,3
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	0,4	-	0,4	-	-	-
Kimyoviy va shunga o'xshash mahsulotlar	20138,3	4547,2	15591,1	11,9	15,0	11,2
Sanoat mahsulotlari	11818,6	4116,6	7702,0	7,0	13,5	5,5
Mashinalar va transport uskunalari	111614,5	6406,3	105208,2	65,9	21,1	75,7
Har xil tayyor mahsulotlar	6888,2	789,6	6098,6	4,1	2,6	4,4
Xizmatlar	544,5	444,1	100,4	0,3	1,4	0,1

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORTNING O`ZGARISH SUR`ATLARI (2020-yil yanvar-iyul)

Importning eng katta ulushi, jumladan, Mashinalar va transport uskunalari (**21,1 %**), Yoqilg'i bundan mustasno, nooziq-ovqat xom ashyolari (**19,8 %**) hamda Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar (**17,0 %**) MDH mamlakatlariga to`g`ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (**75,7 %**) va Kimyoviy va shunga o'xshash mahsulotlar (**11,2 %**), hissasiga to`g`ri keladi.

XSST tarkibi	2019-yil yanvar-iyuliga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	62,9	51,9	65,9
shu jumladan:			
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	32,4	22,2	67,2
Yoqilg'i bundan mustasno, nooziq-ovqat xom ashyolari	-	-	-
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	79,1	151,9	25
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	104,9	106,1	91,1
Kimyoviy va shunga o'xshash mahsulotlar	1,1	-	-
Sanoat mahsulotlari	64,2	35,9	83,4
Mashinalar va transport uskunalari	22,5	36,5	18,7
Har xil tayyor mahsulotlar	81	54,1	83,5
Xizmatlar	42,9	130,4	39,5

IMPORT TARKIBI DINAMIKASI (2020-yil yanvar-iyul, ulushi, % da)

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko`rsatdiki, 2019-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi **67,6 %** kamaydi.

**TOVAR
VA XIZMATLAR
IMPORTIDAGI
YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
(yanvar-iyul)**

Tarkibi	2018 yil yanvar- iyul	2019 yil yanvar- iyul	2020 yil yanvar- iyul
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	3,2	9,6	1,8
Yoqilg'i bundan mustasno, nooziq-ovqat xom ashyolari	4,3	19,8	1
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	3,3	17,0	0,3
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	-	-	-
Kimyoviy va shunga o'xshash mahsulotlar	11,9	15,0	11,2
Sanoat mahsulotlari	7,0	13,5	5,5
Mashinalar va transport uskunalari	65,9	21,1	75,7
Har xil tayyor mahsulotlar	4,1	2,6	4,4
Xizmatlar	0,3	1,4	0,1


Hisobot davri yakunlariga ko`ra, import bo`yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida **33,6 %** ulushi bilan Germaniya (**11,5 %**) ortda qoldirgan holda, birinchi o`rinni egalladi.

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O`shish sur`ati, % da		O`rni	
	2019-yil yanvar- iyul	2020-yil yanvar- iyul	2019-yil yanvar- iyul	2020-yil yanvar- iyul	2019-yil yanvar- iyul	2020-yil yanvar- iyul
Xitoy Xalq Respublikasi	109877,1	56892,5	3,1 m.	51,8	1	1
Germaniya	6982,5	19465	96,7	2,8 m.	8	2
Rossiya Federatsiyasi	21586,1	14950,2	109,2	69,3	3	3
Turkiya	8446,7	13840,7	57,9	163,9	6	4
Hindiston	3858,4	10214,9	96,8	2,6 m.	13	5
Yaponiya	5628,3	8176,9	73,4	145,3	10	6
AQSH	4733,1	6746,0	101,0	142,5	12	7
Qozog`iston	20213,1	5894,5	200,3	29,2	4	8
Belarus Respublikasi	2408,6	5355,1	257,7	222,3	16	9

**TOVAR
VA XIZMATLAR
IMPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR-
DAVLATLAR
DINAMIKASI
(yanvar-iyul)**

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019-yil yanvar- iyul	2020-yil yanvar- iyul	2019-yil yanvar- iyul	2020-yil yanvar- iyul	2019-yil yanvar- iyul	2020-yil yanvar- iyul
Fransiya	3647,6	3594,6	3,1 m.	98,5	14	10
Avstraliya	-	3276,1	-	-	51	11
Italiya	2196,6	2712,6	33,2	123,5	17	12
Koreya Respublikasi	15281,5	2356,8	23,7	15,4	5	13
Litva	25549,2	1826,3	83,3 m.	7,1	2	14
Turkmaniston	6262,3	1816,1	27,3 m.	29	9	15
Qirg'iz Respublikasi	50,7	1571,7	4,5	31,0 m.	41	16
Shveysariya	1157,9	1459	12,2 m.	126	23	17
Janubiy Afrika	-	1208,2	-	-	79	18
Polsha	571,7	1051,9	34,4 m.	184,0	26	19
Braziliya	-	859,5	-	-	56	20

2019-yil bilan taqqoslaganda import bo'yicha eng yuqori oltilikga Germaniya, Hindiston va Yaponiya qo'shildi. 2020-yil yanvar-iyul oylari yakuni bo'yicha Qashqadaryo viloyati tomonidan **45** davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.



**TOVAR
VA XIZMATLAR
IMPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR-
DAVLATLAR
DINAMIKASI
(yanvar-iyul)**

Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Hindiston, Yaponiya va AQSH) jami importning **76,9** % ini tashkil qiladi, bu **130,3** mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Germaniya, Rossiya, Turkiya tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta`minlash bo`yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:75-221-44-28**